



XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «29» июль

VI-49-110-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

Sho'rchi tumanida 2022-yil II-choragi davomida yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda Bandlik dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida

Sho'rchi tumanida joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida markaz tomonidan Dasturda belgilangan 727 nafar o'rniga amalda 1264 nafar ishsiz fuqarolar doimiy ish o'rinlariga ishga joylashtirildi. Ishga joylashtirish bo'yicha dastur ko'rsatkichlari 173.8% ga bajarildi. Doimiy ish o'rinlariga ishga joylashganlarning 866 nafarini ayollar va 348 nafarini 16 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etdi. Dasturda belgilangan 280 nafar o'rniga amalda 283 nafar ishsiz fuqarolar haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi. Ishsiz fuqarolarni Haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etish bo'yicha dastur ko'rsatkichlari 101%ga bajarildi.

Yanvar-iyun oylari davomida haq to'lanadigan jamoat ishlarida 132 nafar ayollar va 65 nafar 16 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ishtirok etdilar. Kasbga tayyorlash uchun jalb etilgan ishsiz fuqarolarning 18 nafari nogironligi bor shaxslardan iborat. Ularning 9 nafarini ayollar, 5 nafarini 16 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.

2022 yilning yanvar-iyun oylari davomida shahar bo'yicha 69 nafar ishsiz fuqarolar kvota ish o'rinlariga ishga joylashdilar. Ularning 54 nafari ayollar va 24 nafari yoshlardan iborat. Kvota ish o'rinlariga ishga joylashtirish bo'yicha dastur ko'rsatkichlari 96 kishi o'rniga 69 nafar bo'lib 71 % ni tashkil etdi.

Sho'rchi tumanida 2022 yilning yanvar-iyun oylari davomida 360 ta

loyihada 767 ta yangi ish o'rinlari yaratilganligi tasdig'ini topdi. Shundan, Yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etish yo'nalishida 102 ta loyihada 410 ta, Yakkarta tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishida 233 ta loyihada 233 ta, Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishida 2 ta loyihada 12 ta va Hududiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish yo'nalishida 23 ta loyihada 112 ta yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Sho'rchi tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Sho'rchi tumanida 2022-yil II-choragi davomida yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda Bandlik dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha Aholi bandligiga ko'maklashish markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori H.Baydullaevaning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (M.Otaxo'jayev), tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori (H.Baydullaeva), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi, sektor rahbarlari bilan birgalikda:

- tumanda 2022-yilda doimiy yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlar ijrosini yil yakuni bilan to'liq bajarilishini ta'minlash;

- dastur ijrosi bo'yicha belgilangan aholi bandligini ta'minlash prognoz ko'rsatkichlarining kunlik monitoring tizimini yuritish;

- shaharda ishsiz fuqarolarning ro'yxatini to'liq qaytadan mahallabay xatlovdan o'tkazsin hamda aniqlangan noaniqliklarni bartaraf qilish;

- xatlov natijasida aniqlangan ishsizlarni aniq yo'nalishlar bo'yicha bandligini ta'minlash;

- joriy yil uchun mo'ljallangan bandlik dasturiga kiritilgan, biroq bajarilmay qolishi mumkin bo'lgan tadbirlarning sabablarini aniqlash,

- amalga oshirilgan ishlarni tizimli tahlil qilish orqali yil yakuni bilan bandlik dasturini bajarish choralarini ko'rish;

- migratsiya natijasida chet eldan qaytib kelgan fuqarolarni tizimli ravishda ishga joylashtirish;

- migratsiya bo'yicha chet yelda ishlash istagini bildirgan fuqarolarni zamonaviy kasblar hamda chet tillarga o'qitish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etish;

- shahardagi yirik tashkilotlardagi bo'sh ish o'rinlariga ishsiz fuqarolarni jalb qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilish vazifalari topshirilsin.

3. Sho'rchi tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi (H.Baydullaeva)ga:

- shahardagi mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida 2022-yilda yaratilgan ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish;

- har oy yakuni bilan shahar Kengashiga shaharda yaratilgan yangi ish o'rinlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha asoslantirilgan takliflarni kiritib borish;

- mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, hokim yordamchilari hamda mahallardagi xotin-qizlar faollariga mahalla va shahar hududidagi bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumotlarni har oy yangilangan holda yetkazib boorish bo'yicha tizimli ish tashkil qilish;

- ijtimoiy tarmoqlardagi asosiy a'zolari shahar aholisi bo'lgan guruh va kanallarga shahardagi mavjud bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumotlarni joylashtirib borish;

- shahardagi kasb-hunar maktablari bitiruvchilari bilan har oyda uchrashish;

- shaharda tashkil etilgan kasbga o'qitish markazlarida barcha yo'nalishlarda o'quvlarni tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

4. Sho'rchi tuman hokimligi axborot xizmati (N.Shoeva) hamda "Jarayon" gazetasi bosh muharriri (B.Elmuurodova)larga:

- joylarda bandlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Sho'rci tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi (Sh.Bo'ronov) zimmasiga yuklansin.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi**



Xudoyberganov B.X